

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

MAXMUDOVA DILBAR RAXMONOVNA

**RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA KICHIK
BIZNES BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Махмудова Дилбар Рахмоновна

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida kichik biznes boshqaruvini takomillashtirish 3

Махмудова Дилбар Рахмоновна

Совершенствование управления малого бизнеса в условиях формирования цифровой экономики 35

Makhmudova Dilbar Rakhmonovna

Improving small business management in the context of the digital economy 67

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 71

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

MAXMUDOVA DILBAR RAXMONOVNA

**RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA KICHIK
BIZNES BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Iqt1627 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» ta‘lim axborot tarmog‘ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Muxammedov Murod Muxammedovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	G‘ulomov Saidahrur Saidahmedovich iqtisodiyot fanlari doktori, akademik Tursunov Bobir Ortiqmirzayevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 239-41-23, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-75, faks: (99871) 239-28-75, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____ dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi).

G.K.Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

Sh.A.Allayorov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyotning shakllanishi sharoitida kichik biznes boshqaruvini takomillashtirish yangi raqamli vositalar, texnologik yechimlar va innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish hisobiga boshqaruv qarorlarining samaradorligi va operativligini oshirish imkonini beradi. Bu jarayon, o'z navbatida, kichik korxonalarining bozorga moslashuvchanligi, raqobatbardoshligini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va biznes-operatsiyalar shaffofligini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikka salmoqli hissa qo'shadi. "Hozirgi kunda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar YIM tarkibida kichik biznesning ulushi Xitoyda 60%, Yaponiyada 56%, AQShda 55%, O'zbekistonda 54%, Rossiyada 21%ni tashkil etadi"¹. Iqtisodiyot hajmining yarmidan ko'pi va jami iqtisodiyotda band bo'lgan aholining katta ulushi aynan kichik biznes sektori hissasiga to'g'ri kelib, mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi orqali kichik biznes subyektlarining global bozorga integratsiyalashuvi tezlashib, ularning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi ishtirokini kuchaytiradi, bu esa iqtisodiy o'sishning umumiy sur'ati va sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida kichik biznes boshqaruvini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida kichik biznes subyektlarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini boshqarish usullari, sun'iy intellekt va mashinali o'rganish texnologiyalarini boshqaruv qarorlari qabul qilish tizimida qo'llash mexanizmlari, blokcheyn texnologiyasini moliyaviy operatsiyalar va biznes jarayonlari shaffofligini oshirishda integratsiya qilish, shuningdek, raqamli platformalar asosida kichik korxonalarining global bozorlarga integratsiyalashuv strategiyalarini takomillashtirish hamda raqamli boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish metodologiyalarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda kichik biznesni jadal rivojlantirish va uning boshqaruvi imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda kichik biznes subyektlari faoliyati samaradorligiga erishishda, boshqaruvda raqamli texnologiyalarni qo'llash ko'lamini kengaytirish, boshqaruv mexanizmining barcha tarkibiy qismlarini takomillashtirish, davlatning tartibga solish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatida innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kichik biznesda boshqaruv tizimini takomillashtirish bir qator qiyinchiliklarga ega bo'lib, avvalo shiddat bilan o'sib borayotgan raqamli texnologiyalarni boshqaruv faoliyatiga joriy etish bilan bog'liq. Boshqaruvda raqamli texnologiyalarni joriy etish – bu resurslardan oqilona foydalanish, tezkor va asosli qarorlar qabul qilish,

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari; Отчеты Центр развития предпринимательство Московской области. - <http://mcpmo.py/> <https://expert.ru/ekonomika/kak-v-rossii-rastet-maloe-i-srednee-predprinimatelstvo/>

bozordagi raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini yaratishning muhim omilidir. Bu borada belgilab berilgan vazifalarni samarali amalga oshirishda "kichik biznes reabilitatsiyasi" ilmiy tushunchasining mohiyatini ochib berish va amaliy ahamiyatini asoslash, kichik biznes subyektlari ko'lamini bo'yicha boshqaruvda raqamli texnologiyalarni joriy etish asosida salohiyatini baholash modelini, kichik biznes subyektlari ishlab chiqarish hajmini modellashtirishda Kobb-Duglas funksiyasini qo'llash asosida hisoblash uslubiy yondashuvini, kichik biznes ulushining uzoq muddatli istiqboldagi prognoz parametrlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 martdagi PF-50-son "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son "2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024 yil 7 sentabrdagi PQ-312-son "“Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash” kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 8 iyundagi PQ-4742-son "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4862-son "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur yo'nalishdagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Kichik biznesni tashkil etish va boshqaruvini takomillashtirishning nazariy asoslari va amaliy masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari mavjud bo'lib, ularning tarkibida Anri Fayol, Jozef Shumpeter, Piter Druker, Isxak Adizes, Stiv Milano, Sushil Sharma²larini keltirish mumkin.

² Anri Fayol. *Общее и промышленное управление*. Перевод на русский язык: Б. В. Бабина-Кореня. – М., 1923. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий – 28.08.2012. URL:<https://gtmarket.ru/library/basis/5783>; Jozef Shumpeter *The Theory of DEVELOPMENT, An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle*, 1934. 189 p. Peter Drucker *The dean of this country's business and management philosophers* // *Wall Street Journal Innovation and Entrepreneurship*. HARPER, New York. London. Toronto. Sydney.–285r.; Isxak Adizes *Insights/Managerial Insights What Is Healthy Digitalization?* 19.11.2021. (<https://www.ichakadizes.com/category/managerial-insights>). Steve Milano. "Role of Government in Promoting Small Business". January 25, 2019; Sushil K. Sharma. *Socio-Economic Impacts and Influences of E-Commerce in a Digital Economy* // *Digital Economy: Impacts, Influences and Challenges*, 2005. – R. 1-20.

MDH olimlaridan E.Babalyan, V.Burkov, G.Varnakova, O.Durandina, L.Lapidus, O.Loginovskiy, A.Lukyanova, G.Novoselseva, S.Shimilov³ kabilar raqamli iqtisodiyotda kichik biznes boshqaruvini takomillashtirish masalalariga qaratilgan ilmiy ishlari alohida ajralib turadi.

O‘zbekiston olimlaridan S.G‘ulomov, A.Abdullayev, N.Yo‘ldoshev, M.Maxkamova, M.Muxammedov, D.Raximova, G‘.Qosimov⁴ kabilarning tadqiqot ishlarida kichik biznes subyektlarini boshqarish masalalari o‘rganilgan bo‘lib, G.Abduraxmanova, Sh.Axunova, U.G‘afurov, T..Doschanov, I.Kamoliddinov, G.Karabayeva, F.Kasimova, D.Narzullayeva, I.Rustamova, O.T.Sattorqulov, O.Turakulov, O.Umarov, M.Eshov, O.Abdullayev, B.G‘oyibnazarov, N. Jumayev, M.Boltabayev, Sh.Ergashxodjayeva, U.Umurzakov⁵ tomonidan olib borilgan

³ Бабалян Э.Б., Шелехова Л.В., Блягоз З.У., Тешев В.А., Нагоева А.В., Минченко К.А. Развитие малого бизнеса в условиях цифровой экономики // News of Science and Education. 2018. Т. 12. № 1. С. 3–8; Бурков В.Н., Буркова И.В. Механизмы умного управления // Восьмая международная конференция “Управление развитием крупномасштабных систем, 29.09-01.10.2015. – М.: ИПУ им. В.А.Трапезникова РАН, 2015. – Т.1. – С. 19-24; Варнакова Г.Ф., Фадеева А.О. Малый бизнес на пути цифровизации экономики // научно-практический электронный журнал «Аллея Науки». – 2019. - №1(28). – С. 825-828; Дурандина О.В. Оценка эффективности управления предприятиями малого бизнеса // Современные вызовы и перспективы молодежной науки. Сборник статей международной научно-практической конференции, 07.06.2020 г. – Петрозаводск: Новая Наука, 2020. – С. 37-40; Лapidus Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией: монография. – М.: ИНФРА-М, 2018. – 381 с.; Логиновский О.В. и др. Механизмы умного управления промышленными предприятиями и корпорациями. Монография. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2022. – 410 с.; Лукьянова А.В. Тенденции и возможности цифровизации малого и среднего бизнеса // Евразийское научное объединение. – 2019. - №7. – С. 20-30; Новосельцева Г.Б., Рассказова Н.В. Перспективы малого бизнеса в цифровой экономике // Вопросы инновационной экономики. – 2020. – Т. 10. - №1. – С. 521-532; Шимилов С. Стратегия современного предпринимательства и социального развития корпораций. – М.: Дашков и Ко, 2004. – С. 16-17.

⁴ Abdullayev A., Muftaydinov Q., Aybeshov X. Kichik biznesni boshqarish. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.; Yo‘ldoshev N.Q. Menejment. – T.: TDIU, 2018. – 392 b.; Maxkamova M.A. Формирование организационно экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан. Диссертация д.э.н.: 08.00.04. – Т., 2004. – 291 б.; Мухаммедов М.М., Камилова Н.А. Экономическая теория: учебное пособие.. – Samarkand: TURON NASHR, 2020-у. – 476 б.; Raximova D., Shodiyev V., Komilov R., Ro‘zmetov R. Personalni boshqarish. – T.: Fan va texnologiyalar, 2009. – 224 б.; Qosimov G‘.M. Menejment. Darslik. – T.: O‘zbekiston, 2002. – 312 b.

⁵ G.Abduraxmanova Kichik biznesda aholini munosib mehnat tamoyillari asosida ish bilan ta‘minlashni takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. T. 2016.; Axunova Sh.N., Muminova E.A. Digital Economy: Problems and Solutions // Yevraziyskiy Soyuz Uchenых. Elektronnyy resurs: <https://euroasia-science.ru/pdf-arxiv/17-20-akhunova-sh-n-muminova-e-a-digital-economy-problems-and-solutions/>; Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoreferati: 08.00.08. – T., – 2017. – 96 b.; Doschanov T.D., Doschanov A.T., Atayev J.E. Kichik biznes barqarorligi va xavfsizligini ta‘minlashda inson kapitali rolini baholash // Innovatsion iqtisodiyot. – 2023. - №1. – B. 84-90; Kamoliddinov I.M. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish. I.f.f.d. diss. avtoreferati: 08.00.15. – Namangan, 2023. – 61 b.; Карабаева Г.Ш. Основные аспекты активизации инновационных процессов в промышленности Узбекистана // Вестник РЭА им. Г.В.Плеханова. – 2020. - №5, – С. 42-55; Касимова Ф.Т. Современный этап развития цифровой экономики и её влияние на развитие малого бизнеса // Иқтисодиёт ва таълим. – 2022. - №2. – Б. 102-109; Нарзуллаева Д.К. Цифровизация экономики как фактор развития малого бизнеса и предпринимательства в Узбекистане // Наука и инновации. – 2020, - №5. Эл. ресурс: <https://reu.uz/>; Рустамова И.Б., Бабаджанова М.М. Эконометрический анализ процессов инновационного развития сельского хозяйства Республики Узбекистан // Вестник РЭУ им. Г.В.Плеханова. – 2022. - №2. – С. 93-104; Sattorqulov O.T., Muxamadiyev T.J., Isroilova U.A. Kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari // Molodoy uchyonyu. – 2020. - №9. – B. 215-217; Turakulov O., Kayumov O. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sohasini rivojlantirish davrida korxonaning intellektual resurslarini boshqarish // “Computer Science and Engineering Technologies” International scientific and technical conference on October 14-15. Tashkent, 2022. – P. 65-68; Umarov O. Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish tendensiyalari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilm. el. jurnali. – 2018. - №3. el.resurs: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/>; Eshov M.P. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar,

tadqiqot ishlari kichik biznes subyektlari va uning boshqaruvini takomillashtirish muammolariga bag‘ishlangan.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari ushbu yo‘nalishda qilingan ilmiy ishlar ichida o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega. Ammo mazkur tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes boshqaruvining metodologik asoslari: shakllari, metodlari va xususiyatlari, boshqaruvni takomillashtirishda davlatning tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash choralari tizimi, boshqaruvda raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari, boshqaruv amaliyotiga raqamlashtirish texnologiyalari ta‘sirini baholash va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish asosida kichik biznesning boshqaruv tizimini takomillashtirish kabi muammolar alohida dissertatsiya obyekti sifatida o‘rganilmagan. Qolaversa, har bir muammo muayyan zamon va makon uchun o‘zgacha yechimni talab etadi. Bu kabi holatlar ushbu dissertatsiya ishi mavzusini tanlashga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari” mavzusidagi (2021-2025-yy.) ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida kichik biznes boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kichik biznes subyektlarini boshqarishning raqamli iqtisodiyot sharoitidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish va tegishli ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirish;

raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv, tadbirkorlik va biznes tushunchalarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish;

kichik biznes boshqaruvini amalga oshirishda davlatning tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash choralari tizimining rolini tadqiq etish va uni oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

O‘zbekiston va Samarqand viloyati miqyosida kichik biznesning holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;

kichik biznes boshqaruviga raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini tadqiq etish;

natijalar va istiqbollari. Monografiya. – T.: Ma’naviyat, 2017. – 80 b.; Abdullayev O.M., Fattaxov A.A., K.Axmedov. Raqamli iqtisodiyot. – T.: LESSON PRESS, 2020. – 686 b.; G‘oyibnazarov B.K., Raxmonov H.O‘. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikmamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish omili. – T: Fan, 2011. – 184 b.; Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullayev O.M., Baltabayeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 396 b.; Jumayev N.X., Boltabayev M, Qosimova M, Ergashxodjayeva Sh, G‘oyibnazarov B, Samadov A, Xodjayev R. Kichik biznes va tadbirkorlik. O‘quv qo‘llanma. - T.: ADIB NASHRIYOTI, 2011. – 280 b.; Umurzakov U.P., Toshboyev A.J. Kichik biznes va tadbirkorlik: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Sano-standart, 2014-y. – 480 b.

kichik biznes boshqaruvi faoliyatida raqamlashtirish texnologiyalari ta'sirini baholash;

raqamli transformatsiyaning biznes boshqaruviga ta'sirini kuchaytirish istiqbollari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YIM va YHM tarkibidagi ulushining prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari olingan.

Tadqiqotning predmetini raqamli muhitda kichik biznes subyektlari faoliyati jarayonlarini boshqarishdagi iqtisodiy munosabatlar majmuini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, qiyosiy tahlil, korrelyatsion va regression tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, SWOT tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "kichik biznes reabilitatsiyasi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni iqtisodiy, tashkiliy va moliyaviy muammolar tufayli faoliyati izdan chiqqan yoki samaradorligi pasaygan kichik biznes subyektlarini barqarorlashtirish va rivojlantirish jarayoniga ishlab chiqarish quvvatlarini tiklash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, tashqi va ichki boshqaruvni takomillashtirish, bozorda raqobatbardoshlikni tiklash, huquqiy va institutsional yordamni jalb etish orqali biznesning moliyaviy tavakkalchilik darajasini kamaytirish va faoliyat samaradorligini qayta tiklash nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

kichik biznes subyektlari faoliyatini ishlab chiqarish ko'lami, soha xususiyatlari va texnologik tayyorgarlik darajasi asosida baholash imkonini beradigan salohiyat modeli raqamli texnologiyalardan foydalanish indeksi (DTUI — Digital Technology Utilization Index), biznesning raqobatbardoshlik darajasi va raqamlashtirishga investitsiya kiritishga tayyorgarlik darajasi kabi ko'rsatkichlar asosida kichik biznes salohiyatini 4 (yuqori, o'rtacha, past, ehtimoliy) toifaga ajratish orqali boshqarish samaradorligini 1,5 barobarga oshirish imkoni asoslangan;

kichik biznesda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali uning ishlab chiqarish hajmini modellashtirishda Kobb-Duglas funksiyasini qo'llash asosida raqamli investitsiya koeffitsiyenti ($\gamma=1,0\sim 1,6$) darajasida raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini 10–17%ga qadar oshirish asoslangan;

O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti hamda Samarqand viloyati yalpi hududiy mahsuloti tarkibida kichik biznesning ulushi dinamikasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni modellashtirish asosida 2028 yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlariga xos tarzda tadbirkor, tadbirkorlik, biznes va biznesmen kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga oid takomillashtirilgan ta'riflari ishlab chiqilgan;

raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes korxonasini tarkib mezoni bo'yicha aniqlash zarurati asoslab berilgan;

O'zbekistonda kichik biznes sektorining o'n yillik rivojlanish tendensiyasi davrining to'rt bosqichli pog'onalari aniqlangan;

kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan reabilitatsiya qilishning kompleks tamoyillarini inobatga olgan holda, faoliyati tiklanishga muhtoj bo'lgan kichik biznes subyektlarini reabilitatsiya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishning yo'l xaritasi ishlab chiqilgan;

zamonaviy korxonalar rahbarining raqamli iqtisodiyot sharoitida soft va hard skills (yumshoq va qattiq ko'nikmalari)ning boshqaruv funksiyalarida o'zaro taqsimlanishi tasnifi ishlab chiqilgan;

kichik biznes subyektlari raqamli boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan "Digital business management" raqamli platformasining modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining tahlili jarayonida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari va muayyan me'yoriy hujjatlari, kichik biznes subyektlarining hisobotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ilmiy asoslanganligi hamda muallif o'tkazgan sotsiologik so'rov natijalaridan olinganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kichik biznes boshqaruvida raqamli iqtisodiyot yutuqlarini qo'llash va uning mexanizmlarini takomillashtirish, respublikamizda kichik biznes subyektlarining kelgusida raqamli boshqaruv strategiyasini rivojlantirish usullari va mexanizmlarini shakllantirish hamda ularni amaliyotga tadbiiq etish samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish kichik biznes sektorida raqobat muhitini rivojlantirishga oid maxsus ilmiy ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kichik biznes subyektlarini raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli boshqaruv strategiyasini takomillashtirish, shuningdek, mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borish, oliy ta'lim muassasalarida "Kichik biznes va tadbirkorlik", "Raqamli iqtisodiyot", "IT menejment" kabi fanlarning o'quv dasturini ishlab chiqish, o'quv qo'llanma va darsliklar yaratishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida kichik biznes boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “kichik biznes rehabilitatsiyasi” tushunchasining iqtisodiy mazmunini iqtisodiy, tashkiliy va moliyaviy muammolar tufayli faoliyati izdan chiqqan yoki samaradorligi pasaygan kichik biznes subyektlarini barqarorlashtirish va rivojlantirish jarayoniga ishlab chiqarish quvvatlarini tiklash, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash, tashqi va ichki boshqaruvni takomillashtirish, bozorda raqobatbardoshlikni tiklash, huquqiy va institutsional yordamni jalb etish orqali biznesning moliyaviy tavakkalchilik darajasini kamaytirish va faoliyat samaradorligini qayta tiklash nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining talabalari uchun tayyorlangan “Iqtisodiyot nazariyasi” nomli darsligiga kiritilgan (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektorining 2022 yil 31-oktabrdagi 3-sonli buyrug‘i). Ushbu tushunchaning amaliyotga joriy etilishi hozirgi iqtisodiyotni raqamlashirish sharoitida jamiyatda yuzaga kelgan yangi iqtisodiy vaziyatda davlatning kichik biznesni tartibga solish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha funksiyasining mohiyatiga mos keladi va uning amaliyotga joriy etilishi natijasida sohani rivojlantirishning dastavval eng zaif tomonlarini isloh qilish va boshqaruvni tashkil etish tizimini takomillashtirib borish bo‘yicha davlat tomonidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini bergan.

kichik biznes subyektlari faoliyatini ishlab chiqarish ko‘lami, soha xususiyatlari va texnologik tayyorgarlik darajasi asosida baholash imkonini beradigan salohiyat modeli — raqamli texnologiyalardan foydalanish indeksi (DTUI — Digital Technology Utilization Index), biznesning raqobatbardoshlik darajasi va raqamlashtirishga investitsiya kiritishga tayyorgarlik darajasi kabi ko‘rsatkichlar asosida kichik biznes salohiyatini 4 (yuqori, o‘rtacha, past, ehtimoliy) toifaga ajratish orqali boshqarish samaradorligini 1,5 baravarga oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025 yil 30 maydagi 01-07-27-5798-son ma‘lumotnomasi). Mazkur model kichik biznes subyektlari faoliyatining boshqaruvidagi xususiyatlardan kelib chiqib, qaysi bosqichlariga raqamli texnologiyalarni joriy qilish samaraliroq ekanligini aniqlashga yordam bergan va undan foydalanish natijasida kichik biznes boshqaruvida raqamli texnologiyalarni joriy etish xarajatlarni optimallashtirish, operatsion samaradorlikni oshirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborotga asoslangan yondashuvni kuchaytirishga xizmat qilgan.

kichik biznesda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali uning ishlab chiqarish hajmini modellashtirishda Kobb-Duglas funksiyasini qo‘llash asosida raqamli investitsiya koeffitsiyenti ($\gamma=1,0\sim 1,6$) darajasida raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish hajmiga ta‘sirini 10–17%ga qadar oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025 yil 30 maydagi 01-07-27-5798-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi

natijasida ishlab chiqarish funksiyasidan foydalanilishi natijasida kichik biznes boshqaruvi faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy qilish asosida uning rentabelligi 2024–2026 yillarda o‘rtacha 17 %ga oshishi imkonini bergan.

O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti hamda Samarqand viloyati yalpi hududiy mahsuloti tarkibida kichik biznesning ulushi dinamikasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni modellashtirish asosida 2028 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz parametrlari O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025 yil 30 maydagi 01-07-27-5798-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, prognoz qilinayotgan davrda O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti tarkibida 2025–2028 yillar oralig‘ida o‘rtacha yillik pasayish 0,77 %ni tashkil qilishi, Samarqand viloyati yalpi hududiy mahsuloti tarkibidagi kichik biznes subyektlari ulushining bir me’yorda, katta tebranishsiz 2025–2028 yillar oralig‘ida o‘rtacha yillik 1,3% bilan o‘shishga erishilishi hisoblab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan. Tadqiqot natijalari asosida yaratilgan ilmiy-nazariy yondashuv va amaliy taklif sifatida “Digital business management” raqamli platformasi (№DGU-18135 raqamli guvohnomasi 17.08.2022) va ushbu platformaning ma’lumotlar bazasi uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining (№VGU-00750 31.08.2022) guvohnomalari olingan.

Tadqiqot natijalarining amaliy aprobatsiyasi sifatida, ishlab chiqilgan tavsiya va uslubiy yondashuvlar Unipack MChJ, Nextgen IT MChJ, Diamond Solutions MChJ, Damir-Amir Agro f/x, Semurg Samarkand MChJ kabi kichik biznes subyektlarining amaliyotiga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 9 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, to‘qqizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 155 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, mavzuning o'rganilganligi baholangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari aniqlanib, obyekt va predmeti belgilangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida kichik biznes boshqaruvini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rnini, kichik biznesni boshqarishning metodologik asoslari, shakllari, metodlari va xususiyatlari ochib berilgan, hamda ushbu sektor boshqaruvini takomillashtirish borasidagi davlatning tartibga solish va qo'llab-quvvatlash siyosatining o'ziga hos jihatlari tadqiq qilingan.

Yangi O'zbekistonda izchil amalga oshirilayotgan keng ko'lami iqtisodiy islohotlar doirasida milliy iqtisodiyotda sodir bo'layotgan makroiqtisodiy o'zgarishlar barcha sohalarda, jumladan, kichik biznes boshqaruvida ulkan burilishga sabab bo'ldi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish tadbirkorlikka, ayniqsa, kichik biznesga yangi imkoniyatlar va istiqbollarni ochib berdi. Yangi sharoitda kichik biznes subyektlari bir tomondan, raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishga katta ehtiyoj sezgan bo'lsa, boshqa tomondan, u raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib beruvchi kuchli sohalardan biriga aylandi. Bugungi kunda kichik biznes nafaqat mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining qudratli katalizatori, balki mamlakatda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda asosiy drayverlardan biriga aylandi.

Global miqyosda raqamli iqtisodiyotning tez sur'atlarda o'sishi, uni rivojlanish bosqichiga xos ravishda mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash va yangi takomillashgan ta'riflarini ishlab chiqishni talab qiladi. Nazariy izlanishlar asosida olimlarning qarashlari o'rganildi va dissertant tomonidan raqamli iqtisodiyotning shakllanish miqyosini e'tiborga olgan holda, uning muallif talqinidagi yangi takomillashgan ta'rifi ishlab chiqildi. Iqtisodiyotning rivojlanish bosqichiga xos tarzda, raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlik, tadbirkor, biznes, biznesmen kategoriyalariga ham muallif talqinidagi takomillashtirilgan ta'riflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida kichik biznes boshqaruvining nazariy asoslarini tadqiq qilish asosida uning besh bosqichdan iborat tarixiy rivojlanish davrlari tahlil qilindi va zamonaviy iqtisodiyotda boshqaruvning mohiyatini aniqlashga jiddiy e'tibor qaratildi (1-jadval).

Birinchi davr qolganlariga nisbatan ancha davomli bo'lib, miloddan avvalgi dastlabki mingyillikkacha davom etgan. Bu davrda jamiyatni, davlatni, ishlab chiqarishni boshqarish bilan bog'liq amaliy va nazariy fikrlar shakllangan.

Boshqaruv nazariyasi va amaliyotining rivojlanish davrlari⁶

Boshqaruvning rivojlanish davrlari	Mazkur davrdagi olimlar	Boshqaruv davri mohiyati
I IV asrdan X asrgacha	Arastu, Platon, Suqrot, Konfutsiy, Farobiy	Bu davr shakllanish davri bo‘lib, boshqaruvning turli shakllari tahlil qilindi.
II 1776-1856-yillar	A.Smit, R.Ouen, J.Sey, Ch.Bebbich, A.Donish	Bu davr sanoat davri bo‘lib, olimlar ta‘limoti ko‘plab zamonaviy ilmiy yo‘nalishlar va menejment maktablarining shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.
III 1856-1960-yillar	F.Teylor, I.Gasprinskiy, A.Fayol, M.Veber, M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Avloniy, L.Mizes, J.Shumpeter	Tizimlashtirish davrida- boshqaruv maktablari, yo‘nalishlari takomillashdi.
IV 1960- 2000 yillar	P.Druker, M.Meskon, I.Adizes, G.Saymon, T.Piters, M.Porter, S.G‘ulomov	Axborot davrida – boshqaruvning yangi innovatsion usullari shakllandi.
V 2000-yildan hozirgi kungacha	G.Mintzberg, G.Hamel, K.Kristensen, T.Davenport, D.Goleman	Raqamli iqtisodiyot davri – boshqaruvda raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish asosida tezkor va samarali qarorlar qabul qilish imkonini yaratib berdi.

Ikkinchi davr – sanoat davri bo‘lib, A.Smitning qarashlari va R.Ouenning ta‘limoti ko‘plab zamonaviy ilmiy yo‘nalishlar va menejment maktablarining shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Uchinchi davr – tizimlashtirish davri bo‘lib, unda boshqaruv maktablari va yo‘nalishlari yanada takomillashdi. Mehnat va boshqaruvni ilmiy tashkil etish asoschisi amerikalik muhandis F.Teylor menejment ilmiy maktabini tashkil qilib, boshqaruv inqilobini shakllantirdi. To‘rtinchi davr – raqamli iqtisodiyotning shakllanish davriga to‘g‘ri kelib, unda “boshqaruv” tushunchasi o‘z xususiyati, mazmuni va mohiyatini o‘zgartirdi, eng muhimi yangicha innovatsion usullarda namoyon bo‘ldi. Beshinchi davr – raqamlashtirish davri bo‘lib, boshqaruvda raqamli texnologiyalarning shiddatli integratsiyalashuviga va uning yangicha nazariyasini shakllantirishga turtki bo‘ldi.

Boshqaruv nazariyasi va amaliyotining rivojlanish davrlarini tadqiq etish jarayonidagi e‘tiborli jihati shundaki, F.Teylor birinchi bo‘lib, boshqaruv va boshqaruvchi atamalarini, menejment va menejer sifatida zamonaviy ma‘noda ishlatdi⁷. Keyinchalik, bu boshqaruv nazariyasida olimlarning menejment va boshqaruv tushunchalariga berilgan ta‘riflari asosida takomillashib bordi.

Xorij va mahalliy olimlar tomonidan boshqaruv va menejment tushunchalarining tub mohiyatini o‘rganish natijasida, ularning aksariyat ishlarida ushbu kategoriyalar bir biriga sinonim sifatida talqin etilgan. Muallif tomonidan mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish asosida, boshqaruv va menejment kategoriyalari sinonim emas, balki, alohida-alohida mustaqil tushunchalar sifatida qarash maqsadga muvofiq degan nazariy xulosaga kelindi va u ilmiy jihatdan asoslab berildi. Har qanday boshqaruv menejment bo‘lolmasligi yoki har bir boshqaruvchi menejmentni yurita olmasligiga asoslanib, boshqaruv ancha keng

⁶ Muallif tomonidan tuzildi.

⁷ Друкер П. Энциклопедия менеджмента. Пер. с англ. М: Издательский дом "Вильямс", 2004. — 432 с.23с.

miqyosli tushuncha, uni turli holat va jarayonlarda qo'llash mumkin, degan nazariy g'oya ilgari surildi. Menejment esa boshqaruvning maxsus-professional ko'nikmalariga ega menejer tomonidan boshqariladigan aniq soha yoki yo'nalishga qaratilgan maxsus faoliyat turi, deb qaraldi. Muallif talqinidagi ularning quyidagi ta'riflari ishlab chiqildi. Boshqaruv – bu kishining ongli ravishda muayyan obyektga qaratilgan va muayyan maqsadli natijaga yo'naltirilgan, uning holatini o'zgartirish yoki barqarorlashtirishga erishilishi ko'zlangan harakat (ongli, maqsadli ta'sir ko'rsatish). Menejment – bu aniq strategiya, prinsip, taktika, metodika asosida boshqaruv funksiyalari va taym menejmentini to'g'ri taqsimlash orqali ko'zlangan maqsadning samaradorligiga erishish jarayoni.

Raqamli iqtisodiyot muhitida esa, erkin bozor raqaboti jarayonida barqarorlikka erishishda yoki ma'lum darajadagi trayektoriyani ushlab turishda, menejmentda raqamli texnologiyalarni joriy qilishni va uning yangicha talqindagi ya'ni “innovatsion menejment” iborasi ta'rifini ishlab chiqishni ilgari surmoqda. Bizningcha, innovatsion menejment – bu dinamik muhitda barqaror o'sish va rivojlanishni ta'minlash maqsadida boshqaruvning zamonga xos bo'lgan, yangicha tamoyillar, usullar, vositalar, shakllar asosida amalga oshiriladigan, innovatsion raqamli texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimi.

Bizning nazarimizda, taklif etilayotgan innovatsion menejment ta'rifining e'tiborli jihati shundaki, unda boshqaruvda yangicha metodlar asosida raqamli texnologiya yutuqlarining joriy qilinishi, jarayonlarni boshqarishni soddalashtirish, ularni tezlashtirish va ish sifatini yaxshilash kabi bir qator omillar menejmentdan olinadigan samaradorlikni keskin oshirish imkoniyatlari mavjudligi g'oyasini ifodalaydi.

Tadqiqot jarayonida kichik biznes boshqaruvining samaradorligini baholash va kelajakda uni oshirish borasida ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning xorijiy va milliy tajribalari o'rganildi. O'zbekistonda kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solish mexanizmining bevosita va bilvosita ta'sir choralari tahlil qilindi, ularga nisbatan muallif fikr-mulohazalari, xulosa va takliflari bayon qilindi.


O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda, davlat ko'magiga muhtoj kichik biznes subyektlari boshqaruvini takomillashtirishning yo'nalishlaridan biri sifatida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimida “kichik biznes rehabilitatsiyasi” degan yangi iborani kiritish va uni amaliyotda qo'llash taklif etilib, uning mohiyati va zarurati asoslab berildi.

Muallif fikricha, raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlari davlatning yordamiga, ko'magiga, lo'nda qilib aytganda, rehabilitatsiyaga muhtoj. Taraqqiyotning hozirgi murakkab jarayonida turli ekzogen omillarning kuchli ta'siri ostida kichik biznesning og'ir ahvolga tushib qolgan faoliyatini tiklash, uni bankrotlikdan qutqarib qolish, tibbiyot tili bilan aytganda, xo'jalik subyekti iqtisodiy nochorligining to'g'ri diagnozini qo'yish va shunga muvofiq tarzda tezkor choralarni ko'rish o'ta muhim ahamiyatga ega.

Muallif fikriga ko‘ra, reabilitatsiyaning asosiy maqsadi – kichik biznes subyektlarining nochor ahvolga tushgan, bankrotlik yoqasida bo‘lgan va yopilish arafasida turgan korxonalarini o‘z vaqtida erta aniqlash, ularning faoliyatiga salbiy ta’sir qilayotgan jihatlarini bartaraf qilish asosida bozor raqobatidagi faoliyatini qayta tiklashdir. Aynan “reabilitatsiya” iborasi bozorda o‘zining mustahkam mavqeiga ega bo‘lmagan, endi faoliyat boshlagan, moliyaviy jihatdan qiyin ahvolga tushgan, zaif bo‘lgan xo‘jalik subyektlarini og‘ir iqtisodiy vaziyatdan chiqarish jarayonining mazmun-mohiyatini nisbatan to‘g‘ri ifodalaydi. Ushbu iboraning mazmuni iqtisodiyotni raqamlashtirish zamirida jamiyatda yuzaga kelgan yangi iqtisodiy vaziyatda davlatning kichik biznesni psixologik, ma’naviy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha funksiyasining mohiyatiga ko‘proq mos keladi. Dissertatsiyaning ikkinchi bobida kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan reabilitatsiya qilishning turlari, metodlari, yo‘nalishlari va amaliyotga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tabirkorlikni boshqarish tizimining tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda kichik biznesning holati, rivojlanish tendensiyalari, boshqaruvda raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari tahlili va kichik biznesni boshqarish amaliyotiga raqamlashtirish texnologiyalari ta’sirini baholash yuzasidan tahlillar amalga oshirilgan.

Mustaqillikdan so‘ng taraqqiyotning o‘ttiz yildan ziyodroq davri mobaynida milliy iqtisodiyotning ustuniga aylanib ulgurgan kichik biznesning holati va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, tahlil qilish, soha rivojiga turtki bo‘layotgan omillarni o‘rganish, amalga oshirilgan tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri sifatida qaraldi. Kichik biznesning holati va rivojlanish tendensiyalarini o‘rganishni ularning soni va jami korxonalar sonidagi ulushini tahlil qilishdan boshlashni lozim topdik. Kichik biznesning statistik ma’lumotlarini tahlil qilish asosida uning yillar davomida qanday o‘zgarganligini baholash va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini berdi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushining dinamikasi⁸

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, Respublika hududlari kesimida kichik biznes subyektlari soni 2023-yilda 2013-yilga nisbatan sal kam 3 baravarga o'sgan va ularning asosiy o'sish tendensiyasi 2019-yildan boshlanib, 2023-yilda 2019-yilga nisbatan 2 baravarga o'sgan. Mazkur besh yillik (2019-2023) oraliq yillarda jami korxonalar va tashkilotlar soni 1,8 baravar (54,6%)ga oshgan. 2013-yildan hozirgi kunga qadar bu ko'rsatkich 2,6 baravar (38,7%)ni tashkil qilgan.

Kichik biznes sohasining mamlakat milliy iqtisodiyotida tutgan o'rnini baholash maqsadida makro ko'rsatkichlar (YIM hajmi, iqtisodiyotda bandlar soni, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya) tarkibida uning ulushi va o'zgarish tendensiyalarini tahlil qildik (2-jadval).

2-jadval

2013-2023-yillarda kichik biznes subyektlarining milliy iqtisodiyotdagi mavqei ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi⁹

Yillar	YIM			Iqtisodiyotda bandlar soni			Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya		
	jami, mlrd so'm	jumladan KB sektorida		jami, ming kishi	jumladan KB sektorida		jami, mlrd so'm	jumladan KB	
		jami mlrd so'm	ulushi, %		ming kishi	ulushi %		mlrd so'm	ulushi %
2013	153311,3	93366,6	60,9	12523,3	9604,0	76,7	30490,1	4856,4	15,9
2014	186829,5	115647,5	61,9	12818,4	9950,8	77,6	37646,2	5797,5	15,4
2015	221350,9	142992,7	64,6	13058,3	10170,4	77,9	44810,4	6722,4	15,0
2016	255421,9	170621,8	66,8	13298,4	10397,5	78,2	51232,0	8874,1	17,3
2017	356453,8	239536,9	67,2	13520,3	10541,5	78,0	72155,2	14486,5	20,1
2018	473652,8	304558,7	64,3	13273,1	10128,8	76,3	124231,3	33111,9	26,7
2019	594659,6	347876,9	58,5	13541,1	10318,9	76,2	195927,34	70650,2	36,1
2020	668038,0	384121,8	57,5	13236,4	9865,7	74,5	210195,1	77715,2	37,0
2021	820536,6	466885,3	56,9	13538,9	10070,7	74,4	239552,6	81544,4	34,4
2022	995573,1	543582,9	54,6	13706,2	10222,9	74,6	266240,0	99972,3	37,5
2023	1192162,5	649728,6	54,5	14014,2	10278,9	73,3	352064,1	145842,8	41,2

Tahlil natijalariga ko'ra 2013-2023-yillar mobaynida kichik biznes subyektlarining mamlakat YIMni shakllantirish (ulushi 60,9%dan 54,5%ga tushgan), aholi bandligini ta'minlash (ulushi 76,3%dan 73,3%ga tushgan), ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi (ulushi 56,2%dan 47,7%ga tushgan) mavqei nisbatan pasaygan, ammo asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi o'sgan (ulushi 15,9%dan 41,2%ga o'sgan).

Tadqiqot jarayonida kichik biznes korxonalarining demografiyasi bo'yicha tahlil amalga oshirildi. Mamlakatda faoliyati tugatilgan korxonalar ulushidagi salbiy ko'rsatkichlar hamda faoliyat ko'rsatmayotgan kichik biznes korxonalarining faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ulushining qariyb teng yarmini tashkil qilganligi, sohaning YIMdagi ulushining pasayishiga va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

turtki bo‘layotganligi aniqlandi. Bunday vaziyatda, kichik biznes subyektlarining tushkun va nochor ahvolga tushgan yoki faoliyatini raqamli iqtisodiyot tendensiyalariga moslashtirishda qiynalayotgan zamonaviy korxonalarining muayyan tanlab olingan guruhlariga, davlat tomonidan reabilitatsiya qilish dasturi doirasidagi chora-tadbirlarning kompleks tamoyillarini qo‘llanilishi va ta‘minlanishi zarurligi asoslandi. Bunda ularning mavjud holatlari bo‘yicha reabilitatsiya tadbirlarini amalga oshirishning dastlabki ko‘mak dasturining qaysi chora-tadbirlari ko‘rsatilishi lozimligining yo‘l xaritasi ishlab chiqildi (3-jadval).

3-jadval

Faoliyati tiklanishga muhtoj bo‘lgan kichik biznes subyektlarini reabilitatsiya qilish chora-tadbirlarining yo‘l xaritasi¹⁰

Reabilitatsiya qilish jarayoni Kichik biznes subyektlari holati	Bosqichlari	Ko‘mak turlari	Qo‘llab-quvvatlash usullari	Qo‘llab-quvvatlash vositalari	Korxonalar holati bo‘yicha toifalarga taqsimlash
Faoliyat ko‘rsatmayotgan kichik biznes subyektlari	1-bosqich – tiklanish	– ijtimoiy-psixologik; – ijtimoiy-iqtisodiy	biznes ta‘limni chuqur yo‘lga qo‘yish	–kredit –yer –bino-inshoot –zarur birlamchi infratuzilmalar	o‘ta og‘ir vaziyatga tushgan korxonalar
Yangi tashkil etilgan (Start-up) kichik biznes subyektlari	2-bosqich – shakllantirish	– ijtimoiy-huquqiy; – ijtimoiy iqtisodiy	maslahat-konsalting xizmatlarini ko‘rsatish	–kredit –yer –bino-inshoot –zarur birlamchi infratuzilmalar	og‘ir vaziyatga tushgan korxonalar
Raqamlashtirishga yo‘naltirilgan kichik biznes subyektlari	3-bosqich – barqarorlashtirish	– ijtimoiy-ma‘naviy; – ijtimoiy iqtisodiy	texnik va axborot yordamlarini ko‘rsatish	–kredit –asbob-uskunalar –zarur birlamchi infratuzilmalar	professional ko‘mak talab etadigan korxonalar

Mazkur jadvalda kichik biznes subyektlarining reabilitatsiya qilinishiga muhtoj bo‘lgan uch turdagi holati keltirildi. Dastlabki birinchi bosqich ya‘ni tiklanish bosqichi reabilitatsiya jarayonining eng muhim va eng mas‘uliyatli bosqichi hisoblanadi va qolgan bosqichlarga nisbatan ancha uzoqroq vaqt talab qilishi mumkin. Bunday korxonalar tarkibiga – faoliyati tugatilmagan, og‘ir ahvolga tushgan, faoliyat ko‘rsatmayotgan va tugatilish arafasida turgan kichik biznes subyektlari tanlanadi. Ular o‘ta og‘ir vaziyatga tushgan korxonalar bo‘lib, reabilitatsiyaning dastlabki bosqichi, ya‘ni qayta tiklanish negizida avvalo ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarini amalga oshirish lozim.

¹⁰ Muallif tomonidan tuzildi.

Ikkinchi turdagi korxonalar — yangi tashkil etilgan yoki start-upga yo'naltirilgan kichik biznes subyektlari bo'lib, ularning og'ir vaziyatga tushganlari tanlab olingan holda, reabilitatsiyaning ikkinchi bosqichi, ya'ni ularning faoliyatini boshlab, yo'lga qo'yishga ko'maklashish nazarda tutilgan. Bunda, avvalo, ijtimoiy-huquqiy, iqtimoiy-iqtisodiy choralar ko'rib, maslahat konsalting xizmatlarini ko'rsatish va kerakli resurslar bo'yicha ta'minlanish choralari ko'rilishi kerak.


Uchinchi turdagi korxonalar — faoliyatini raqamlashtirishga intilayotgan kichik biznes subyektlari bo'lib, professional ko'mak talab etadigan korxonalar hisoblanadi. Ularga reabilitatsiyaning uchinchi bosqichi, ya'ni barqarorlashtirish maqsadida ijtimoiy-ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarini ko'rish, texnik va axborot yordamlarini ko'rsatish, hamda zarur bo'lgan infratuzilma bilan ta'minlashga ko'mak berishdan iborat. Shuningdek, professional reabilitatsiyaga muhtoj bo'lgan korxonalarni, ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, to'g'ri qo'llab-quvvatlash (texnik jihatdan ta'minlash, boshqaruvchilar malakasini oshirish va boshqalar) muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Muallifning fikricha, kichik biznes reabilitatsiyasida sohani rivojlantirishning dastavval eng zaif tomonlarini isloh qilishga asosiy e'tibor qaratilishi lozim. Unda dastlab hozirgi zamon talablarini hisobga olgan holda boshqaruv, texnik va axborot yordamlarini ko'rsatish, maslahat-konsalting xizmatlari rolini oshirish, biznes ta'limni yo'lga qo'yish, shuningdek, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning eng ta'sirchan vositalaridan biri sifatida soha infratuzilmasini rivojlantirish va takomillashtirish masalalari hal qilinishi lozim.

Shuningdek, reabilitatsiyaga muhtoj korxonalar tarkibiga raqamlashtirish bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelgan kichik biznes korxonalarini kiritishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Ushbu zaruratni, birinchidan, raqamlashtirishning taraqqiyot nuqtayi nazaridan muhimligi bilan, ikkinchidan raqamlashtirish jarayonining o'ziga xos muammo va qiyinchiliklari bilan izohlash mumkin. Bizningcha, ushbu turdagi korxonalar ro'yxatini shakllantirishda ularni tarkib mezoni bo'yicha aniqlash, ya'ni raqamli instrumentlar: kompyuter texnologiyalari, biznes modellar va biznes platformalar, dronlar, sun'iy intellekt, 3D printerlari, aqlli qurilmalar kabi obyekt ko'rsatkichlari davlat statistikasining ma'lumotlar bazasiga kiritish lozim. Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi iqtisodiy tahlilni yanada chuqurlashtirish, ilmiy bashoratlarning sifatini oshirish imkonini berishi mumkinligi asoslab berildi.

Bizningcha, kichik biznesni boshqarish tizimini raqamli iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish masalalari hozirgi kunda milliy iqtisodiyot miqyosida dolzarb muammolardan sanalib, uning bu yo'nalishdagi rivojlanish tendensiyasiga erishish strategik jihatdan muhim vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot ishining asosiy mazmuni ham raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida kichik biznes boshqaruvini takomillashtirishga bag'ishlanganligi bois, mamlakatda raqamli iqtisodiyotning qanday holatda ekanligi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi (2-rasm).



2-rasm. Raqamli iqtisodiyot ko'rsatkichlarining tarmoqlar bo'yicha rivojlanish dinamikasi ¹¹

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakat YIM tarkibida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynayotgan tarmoqlardan axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorining ulushi 3,8% bilan yetakchilik qilib, keyingi o'rinlarda AKT 2,3%, AKT xizmatlari 2,2%, elektron tijorat 1,2%, kontent sektori va OAV 0,2%, AKT savdoda va AKT ishlab chiqarishda 0,1% ni tashkil qilgan. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotni tez sur'atlarda rivojlantirishda asosiy tarmoqlardan bo'lgan, AKT ishlab chiqarish, AKT savdo va elektron tijorat sektori ulushi mamlakatda juda ham past ko'rsatkichlarni qayd etgan.

Tahlil natijasida mamlakatda raqamli iqtisodiyotning holatini belgilab beruvchi ko'rsatkichlar, uni rivojlantirishning sifat darajasidagi ko'rsatkichlaridan juda past ekanligi aniqlandi. Iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan o'sayotgan mamlakatlarda uning YIMdagi ulushi ancha yuqori (AQShda 10,9%, Xitoyda 10%, Hindistonda 5,5%).

Kichik biznesning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish jarayonida raqamli texnologiya yutuqlarini boshqaruv faoliyatiga joriy qilishda yuzaga kelgan va ushbu sektor ulushi pastligiga sabab bo'lgan omillarni aniqladik. Bular:

- sohada malakali mutaxassislarning yetishmayotganligi;
- zamonaviy texnika-texnologiyalarni amaliyotga joriy etishdagi o'ziga xos muammolar (moliyaviy tanqislik, moddiy-texnika bazasining talabga javob bermasligi va boshqalar);
- ayrim kichik biznes subyektlarining bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mukammal harakatlana olmasligi;
- tadbirkorlik tamoyillariga to'liq amal qilmaslik (masalan, innovatsiyani joriy qilishga e'tiborsizlik, samaradorlikka erishish qoidalariga rioya qilmaslik, mehnat natijalariga mas'uliyatsizlik, isrofgarchilikka yo'l qo'yish, tejamkorlikka

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

e'tiborsizlik, tavakkalchilikni baholay olmaslik yoki mulkdan foydalanishda tajribaning yetarli emasligi).

Tadqiqot jarayonida kichik biznes subyektlarining holati, mavjud imkoniyatlarini o'rganish va ularning boshqaruvi amaliyotiga raqamlashtirish texnologiyalari ta'sirini baholash maqsadida Samarqand viloyati miqyosida 2 bosqichdagi sotsiologik so'rov o'tkazildi. So'rovnomaning birinchi bosqichi keng miqyosda bo'lib, viloyatda faoliyat olib borayotgan, boshqaruv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etishni xohlagan kichik biznes subyektlarining holati, imkoniyatlari va raqamlashtirishga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga erishildi. So'rovnomada jami 24 ta savol kiritilgan bo'lib, ushbu savollar korxonada boshqaruvi faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy qilish zarurati bo'yicha ilmiy va amaliy xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, "Kelajakda biznes boshqaruviga raqamlashtirishni joriy qilishga qanday munosabat bildirasiz?" degan savolga, ishtirok etgan respondentlarning 53,2% "Biznes boshqaruvi raqamli texnologiyalarga ehtiyoj sezmoqda" deb javob bergan bo'lsa, 42,5% "Barcha biznes jarayonlari yaqin kelajakda raqamlashtiriladi" deb javob berishgan. Ulardan atigi 4,2% "Biznesni raqamlashtirish umuman shart emas" degan fikrlarni bildirishdi.

Shuningdek, ikkinchi so'rovnoma torroq miqyosda, ya'ni kichik biznes subyektlarining raqamli texnologiyalarni joriy etgan va uni joriy qilishga tayyor bo'lganlari o'rtasida o'tkazildi. Unda 10 ta savol berilgan bo'lib, boshqaruv faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish asosida erishilgan natijalari, mavjud imkoniyatlari, raqamlashtirish texnologiyalariga oid respondentlarning taklif va tavsiyalari o'rganildi. O'tkazilgan so'rovnoma natijasida kichik biznes subyektlari boshqaruv faoliyatini raqamlashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar aniqlandi. Bular quyidagicha:

- korxonaning o'rtacha yillik daromadi;
- raqamlashtirish uchun qancha mablag' yo'naltirilganligi (moliyaviy potentsiali);
- korxonadagi kompyuterlar soni va ularning internetga ulanganligi;
- korxonada boshqaruvi faoliyatida raqamli platformalarning mavjudligi va ularning soni;
- rahbarlarning raqamlashtirishdagi ko'nikmalari.

Ushbu 2 bosqichdagi o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma tahlili natijasida kichik biznes boshqaruvida raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy qilish imkoniyatlarini aniqlashda, uning salohiyati bo'yicha baholashni amalga oshirdik. Kichik biznes subyektlari boshqaruvi faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy qilish imkoniyatlari salohiyatini baholash modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelda kichik biznes subyektlari faoliyatining ko'lami, ya'ni tashkil etish shakllari va ularning boshqaruvidagi xususiyatlaridan kelib chiqib, qaysi bosqichlariga raqamlashtirishni joriy qilish samaraliroq ekanligi aniqlandi (3-rasm).

mikrokorxonalar				
mahalliy kichik korxonalar				
eksportga yo'naltirilgan kichik biznes subyektlari				
ilmiy faoliyatga yo'naltirilgan kichik biznes subyektlari				
Start-up loyihalariga yo'naltirilgan kichik biznes subyektlari				
	raqamlashtirishni joriy etish	raqamlashtirishdagi ko'nikmalar	innovatsion yondashuvlar	innovatsion menejment

ehtimoliy	past	o'rta	yuqori

imkoniyatlar salohiyati darajalari

3-rasm. Kichik biznes subyektlari ko'lami bo'yicha boshqaruvda raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari asosida ularning salohiyatini baholash modeli¹²

Rasmdagi modelda kichik biznes subyektlari ko'lami va boshqaruv xususiyatlaridan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari darajalarini baholash orqali eng qisqa va eng muhim bo'lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish asosida iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligi o'z ifodasini topgan. Ushbu maqsadda kichik biznesning tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha 5 toifasi tanlab olindi va ularning boshqaruv faoliyatini raqamlashtirish salohiyati (raqamlashtirishni joriy etish, raqamli ko'nikmalar, innovatsion yondashuvlar va innovatsion menejment)ni 4 ta darajalar (ehtimoliy, past, o'rta, yuqori) bo'yicha aniqlash orqali baholashga erishildi. Ushbu baholash modelida kichik biznes subyektlari faoliyatining boshqaruvdagi xususiyatlaridan kelib chiqib, qaysi bosqichlariga raqamlashtirishni joriy qilish samaraliroq ekanligini aniqlash imkonini berdi.

1-toifadagi mikrokorxonalar boshqaruv faoliyatini innovatsion menejment asosida yuritishi uchun mavjud raqamlashtirish va raqamli ko'nikma salohiyatlariga ega bo'lsada, korxonalar moliyaviy ta'minoti ya'ni moddiy imkoniyatlarining cheklanganligi va boshqaruv masalalari maqsadli yo'naltirilmaganligi bilan belgilandi. Shuningdek, mikrofirmalar imkoniyatlar salohiyatidagi baholangan bunday holat, har bir korxonalarining individual yondashuvidan kelib chiqqan holda aniqlandi.

2-toifa mahalliy kichik korxonalar muayyan hudud iste'molchi va xaridorlarning talab va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan qulay bo'lgan zamonaviy usullardan to'g'ri foydalana olganliklari bois, ularda raqamli ko'nikmalar va innovatsion yondashuvlar imkoniyati yuqori baholandi.

3-toifa eksportga yo'naltirilgan kichik biznes subyektlari, xususan, franchayzing asosida tashkil qilingan korxonalar bo'lib, boshqaruvda mavjud aniq tajriba va malakaning borligi sabab raqamlashtirishni joriy etish o'rta, innovatsion yondashuvlar yaxshi va innovatsion menejment yuqori deb baholandi.

¹² Muallif tomonidan tuzildi.

4-toifa ilmiy tadqiqotlarga yoʻnaltirilgan kichik biznes subyektlari boshqaruv amaliyotida zarur va kerakli koʻnikmalarga ega boʻlib, boshqaruv faoliyatiga ilmiy yondashganligi sababli, ularda innovatsion menejment yuqori baholandi.

5-toifadagi start-up loyihalariga yoʻnaltirilgan kichik biznes subyektlarining asosiy qismida raqamlashtirishni joriy etish imkoniyatlari past baholanib, buning asosiy sababi biznesni tashkil etishdagi moliyaviy jihatdan zaifligi, malaka va tajribadagi kamchiliklarning mavjudligi bilan belgilandi.

Oʻtkazilgan 2 bosqichdagi soʻrovnoma natijalarini umumlashtirgan holda, respondentlar tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar asosida soha boshqaruvini raqamlashtirishda kelajakda turtki berishi mumkin boʻlgan omillar ham aniqlanib, ulardan asosiylari tanlab olindi. Bunday omillar tarkibiga quyidagilarni kiritishni lozim topdik:

- tadbirkorlarni raqamli iqtisodiyot boʻyicha oʻqitish, bilim va salohiyatini oshirish (maxsus kurslar tashkil qilish);

- raqamli iqtisodiyotda ishlay oladigan mutaxassis kadrlarning rolini oshirish;

- infratuzilmaviy muammolarni bartaraf etish: elektr energiyasi taʼminotini yaxshilash, internet narxini pasaytirish, tezligi sifatini oshirish va hududlar boʻyicha qamrovini kuchaytirish;

- patentlash jarayonini yengillashtirish;

- raqamli biznesda ishonchlilik, axborot xavfsizligi, kiberzoʻravonlik kabi muammolar yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- biznesni raqamlashtirishga yoʻnaltirilgan maqsadli kreditlar ajratish;

- biznesni raqamlashtirish chora-tadbirlarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida muayyan hududlar, mahalliy davlat organlarining ishtiroki (koʻmagi)ni kuchaytirish;

- tadbirkorlarning raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini biznes boshqaruvi faoliyatiga tadbiq etish borasida ularning “raqamli immuniteti” (axborot va texnologik savodxonlik darajasi)ni mustahkamlashda axborot media tarmoqlari orqali tushuntirish chora-tadbirlarining bevosita va bilvosita amaliyotini olib borish.


Tadqiqot jarayonida kichik biznes subyektlari boshqaruvida raqamli texnologiyalarni joriy qilish imkoniyatlari va ularning mavjud iqtisodiy holatini chuqur oʻrganish maqsadida statistika agentligi tomonidan oʻtkazib kelinayotgan soʻrovnoma maʼlumotlari tahlil qilindi. Mazkur soʻrovnomada kichik biznes subyektlarining umumiy iqtisodiy holati uch (qulay, qoniqarli, qoniqarsiz) sifat bosqichi boʻyicha baholandi. 2018-yildan 2023-yillardagi oraliq davrda iqtisodiy holatni “qulay” deb baholaganlar 30,9%, “qoniqarli” deb baholaganlar 84,1%, “qoniqarsiz” deb baholaganlar 12,4%ni tashkil qilgan.

Maʼlumotlarni tahlil qilish natijasida, 2023-yilning oʻzida kichik biznes subyektlarining umumiy iqtisodiy holatini qoniqarsiz deb baholaganlarga nisbatan, qulay deb baholaganlar soni 5,1 baravarga koʻproq ulushni tashkil qilgani va yildan-yilga oʻsish dinamikasini qayd etganligi aniqlandi. Bu oʻz navbatida korxonalar boshqaruvida raqamli iqtisodiyot yutuqlarini joriy qilish uchun juda ijobiy natijalarni koʻrsatishi tahlillar bilan asoslab berildi.

Dissertatsiyaning **“Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes boshqaruvinı takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida kichik biznes boshqaruviga raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy etish asosida takomillashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni boshqarish amaliyotiga

raqamlashtirish texnologiyalarini joriy etish samaradorligini baholash va raqamli transformatsiyaning biznes boshqaruviga ta'sirini kuchaytirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, kichik biznesning boshqaruv faoliyatiga raqamlashtirishni joriy etish maqsadida "Digital business management"¹³ platformasining modeli ishlab chiqilgan (4-rasm).



4-rasm. "Digital business management" raqamli platformasi modelining tarkibiy qismlari¹⁴

Muallifning fikricha, "Digital business management" platformasi kichik biznes subyektining bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan boshqaruvning muhim innovatsion yechimi sifatida qaralishi lozim.

Ushbu platformaning amaliy ahamiyati kichik biznes korxonasi boshqaruv faoliyatida yuqori darajadagi aniqlikka erishish imkonini beruvchi korxonalar kirim-chiqimining statistikasini, mijozlar ma'lumotlari, hujjatlarning elektron bazasi, sotuvchanlik prognozi hisobini, vazifalarning elektron taqsimlanishini va barcha hujjatlarning avtomatik tarzda maxsus QR-kodlanishi kabi funksiyalarni bajarilishini ta'minlashi bilan izohlanadi.

Shu bilan bir qatorda u kelajakda analitik va statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirishga ham katta amaliy yordam beradi. Biz taklif etgan "Digital business management" platformasi modelida kichik biznes korxonalarini boshqaruv faoliyati yagona tizim asosida yuritilishi ta'minlanadi. Bu esa boshqaruv samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan o'ta muhim bo'lgan korxonalar, mijozlar, mahsulotlar, sotuvlar, xarajatlar, kirim-chiqimlar, umumiy kassa, omborxonalar, sotuvchanlik, vazifalar, xodimlar va hujjatlar kabi korxonalar boshqaruvini monitoring qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bazasini yaratib beradi.

Shuningdek, mazkur platforma davlat nazorat organlarining kichik biznes subyektlari faoliyati ustidan tekshiruv ishlarini amalga oshirishda shaffoflikni

¹³ EHM uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma №DGU-18135 (O'zbekiston Respublikasi Dasturiy mahsulotlar davlat reestrda 17.08.2022 yil ro'yxatdan o'tkazilgan).

¹⁴ Muallif tomonidan tuzildi.

ta'minlaydi. Ya'ni kichik biznes korxonasi hujjatlar oqimi QR kodlanishi natijasida turli muammolar, tushunmovchilik, korrupsiya va davlatni aldashga chek qo'yiladi. Davlatning boshqaruv nazoratida qulayliklar yaratadi.

Taklif etilgan raqamli platforma modeli quyidagi ko'rinishdagi boshqaruv jarayonlariga ega bo'lib, har bir boshqaruv qarorlarini qabul qilish bosqichlari bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan (5-rasm).

1. Korxonada boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni holatining tahlili

korxonada faoliyatining umumiy tahlili;
korxonada muammosini aniqlash;
korxonada boshqaruvi faoliyatidagi axborotlashtirish, avtomatlashtirish va raqamlashtirish darajasini baholash.

2. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda raqamlashtirishning maqsadga muvofiqligini asoslash

boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi takroriy jarayonlarni ajratib olish;
ko'p mehnat jalb etiladigan va murakkab jarayonlarni ajratib olish;
boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ajratib olingan elementlarni raqamlashtirishning maqsadga muvofiqligini asoslash.

3. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda joriy etilgan raqamlashtirishning maqsad va vazifalarini belgilab olish

raqamlashtirish maqsadini belgilab olish;
raqamlashtirish vazifalarini aniqlash.

4. Raqamli boshqaruvning umumiy tavsifini ishlab chiqish

raqamli boshqaruv uchun belgilab olingan elementlar aks etadigan joylarining umumiy tahlili va yechim talab etiladigan muammoni belgilab olish;
raqamli boshqaruv uchun belgilab olingan elementlarni axborotlashtirish, avtomatlashtirish va raqamlashtirish darajasini baholash ko'rsatkichlarini belgilab olish.

5. Raqamlashtirilgan jarayonning iqtisodiy samarasini baholab borish

raqamli platforma xarajatlari hisobini yuritish;
raqamli platformaning iqtisodiy samarasining hisobini olib borish;
raqamli platformani takomillashtirish maqsadida uning konfiguratsiyalarini yangilab turish.

5-rasm. "Digital business management" platformasi yordamida boshqaruv qarorlarini qabul qilishning samarasini baholashdagi ilmiy-uslubiy yondashuv¹⁵

5-rasmda keltirilgan "Digital business management" platformasi yordamida boshqaruv qarorlarini qabul qilishning samarasini baholashda taklif etilgan ilmiy-uslubiy yondashuv kichik biznes korxonalarida boshqaruvi faoliyatida ko'rib chiqildi. Ushbu yondashuvni joriy etish jarayonida unga xos ustunliklar va kamchiliklar aniqlandi. Jumladan, xodimlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalariga ega emasligi, raqamli texnologiyalarni joriy qilishdagi moddiy resurslar taqchilligi kabi omillar aniqlandi. Platformani joriy etish natijasida olingan iqtisodiy samara va vaqt omilining tejalishi aksariyat kichik biznes rahbarlarida taklif etilgan uslubiy yondashuvga nisbatan katta qiziqish uyg'otdi.

Tadqiqot jarayonida olingan xulosalar asosida "Digital business management" modeli asosida ishlab chiqilgan platformasining amaliyotda

¹⁵ Muallif tomonidan tuzildi.

qo‘llanilishi boshqaruv xodimlari va jamoaning ish faoliyatiga qanday ta‘sir ko‘rsatganligiga alohida e‘tibor qaratdik. Ushbu maqsadda kichik biznes subyekti boshqaruvining tashkiliy tuzilmasidagi bo‘g‘inlar va bosqichlar tarkibida ishtirok etuvchi barcha xodimlarni 3 toifaga ajratdik: birinchisi-korxonaharbari; ikkinchisi-bo‘lim boshlig‘i va menejerlar; uchinchisi-xodim va ijrochi mutaxassislar.

Tadqiqotda taklif etilgan platformani qo‘llash natijasida boshqaruv xodimlari faoliyatida diqqatga sazovor ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berganligini, ya‘ni ularning zimmasidagi funksiyalarni bajarishda yangi imkoniyatlarning paydo bo‘lganligini ko‘rsatdi. Bular quyidagilar:

– kichik biznes subyekti rahbari uchun: tezkor (operativ) faoliyatni nazoratga olish; rejalashtirish va bashorat qilish; chuqur va sifatli tahlil olib borish; taym-menejmentini joriy etish; o‘z faoliyatining yurituvchi nazoratini olib borish imkoniyatlarining paydo bo‘lishi;

– bo‘lim boshlig‘i yoki menejerlar uchun: xodimlarni boshqarish va vazifalarni belgilab berishdagi qulayliklar; chuqur va sifatli tahlil olib borish; raqamli muhitda marketingni olib borish imkoniyatlarining paydo bo‘lishi; vaqtning tejalishi;

– xodim va ijrochi mutaxassislar uchun: sodda va qulay raqamlashtirilgan ish instrumenti sifatida foydalanish mumkinligi; ma‘lumotlarni yo‘qotib qo‘yish muammosining bartaraf etilishi; xaridlar va buyurtmalar ro‘yxati bazasini shakllantirish asosida tizimlashtirilgan ma‘lumotlar bazasini tashkil qilish imkoniyatining paydo bo‘lishi.

Kichik biznes subyektlari boshqaruvi faoliyatida yuqorida qayd etilgan imkoniyatlar uning samaradorligiga, korxonah ish faoliyati natijalariga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu xulosamizning to‘g‘riligini ilmiy jihatdan tasdiqlash maqsadida Kobb-Duglas funksiyasini qo‘llash asosida bir qator hisob-kitoblarni amalga oshirdik. Tadqiqotlarda keng qo‘llaniladigan ko‘p sonli ishlab chiqarish funksiyalari (chiziqli funksiyalar, kvadratik funksiyalar, transsendantal funksiya, Mitcherlix funksiyasi va boshqalar) tarkibidan aynan Kobb-Duglas funksiyasining tanlanganligi, bizning tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan afzallik jihatlari tafsilotlari bayoni dissertatsiyada keltirilgan.

Kichik biznes subyekti ishlab chiqarish hajmining o‘shishini modellashtirishda Kobb-Duglas funksiyasidan foydalanganligimiz va uning boshqa funksiyalarga nisbatan o‘ziga xos ustunligi shundaki, u erishilgan natijada ilmiy-texnik progressning rolini aniqlash imkonini beradi. Bu borada Kobb-Duglas funksiyasi takomillashtirilib, unga raqamli investitsiyalar omili kiritildi:

$$Y = A \times K^{\alpha} \times L^{\beta} \times DI^{\gamma} \quad (1)$$

bu yerda:

Y – ishlab chiqarish hajmi;

A – aksariyat holda texnologiya darajasiga bog‘liq bo‘lgan konstanta hisoblangan koeffitsiyent;

K – kapital (asosiy fondlar);

L – mehnat resurslari;

DI – raqamli investitsiyalar hajmi;

α – kapital bo‘yicha ishlab chiqarishning elastiklik koeffitsiyenti;

β – ishlab chiqarishning mehnat bo‘yicha elastiklik koeffitsiyenti;

γ – ishlab chiqarishning raqamli investitsiyalar bo‘yicha elastiklik koeffitsiyenti.

Tadqiqot jarayonida raqamli texnologiyalarni kichik biznes subyektlari boshqaruvi faoliyatiga joriy etish iqtisodiy samara berishini isbotlashda aynan Kobb-Duglas funksiyasidan foydalanish kerakligini asoslab berish maqsadida 14 ta ilmiy manbalarda (shulardan 5 tasi O‘zbekistonlik olimlar ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari) o‘zlarining ilmiy gipotezalarini isbotlashda aynan Kobb-Duglas funksiyasidan foydalanilgan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qildik. Tahlil natijalarini jadval shaklida tizimlashtirdik. Kichik biznes sektorida yaratilgan YIM, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va band bo‘lganlar ko‘rsatkichlarining Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasida aks ettirib, unga nisbatan dissertatsiyada muallifning fikr-mulohazalari va xulosalari bayoni keltirildi.

Shuningdek, platformani faoliyatga joriy etishdan olinadigan iqtisodiy samarani aniqlash maqsadida ishlab chiqarish funksiyasi yordamida “Semurg Samarkand” MChJ korxonasi 2026 yilga qadar tovar aylanmasi prognoz ko‘rsatkichlarini hisoblab chiqish zarur, degan xulosaga keldik. Unga muvofiq, bir qator ko‘rsatkichlar tahlil uchun tanlab olindi (Y (tushum), K (kapital), P (ma‘muriy-boshqaruv xarajatlari), L (mehnat resurslari), DI (raqamli investitsiyalar hajmi)).

Kobb-Duglas modelidan logarifm olib, tenglamani chiziqli ko‘rinishga keltirdik:

$$\ln Y = \ln A + \alpha \times \ln K + \beta \times \ln L + \gamma \times \ln DI \quad (2)^{16}$$

Bu tenglama ko‘p o‘lchovli regessiya modeli sifatida qaraldi va α , β , γ – regressiya koeffitsiyentlari sifatida baholandi hamda korrelyatsion-regression tahlil usuli yordamida α , β , γ qiymatlari aniqlandi:

$$\ln Y = a + \alpha \times \ln K + \beta \times \ln L + \gamma \times \ln DI, \quad a = \ln A \quad (3)^{17}$$

Keyingi bosqichda Semurg Samarkand MChJ korxonasi 2019-2023 yillar bo‘yicha tegishli ko‘rsatkichlari asosida ishlab chiqarish funksiyasining hisobi amalga oshirilgan bo‘lib, u orqali ishlab chiqarish funksiyasi ko‘rinishini aniqlab olish mumkin bo‘ldi (4-jadval).

4-jadval

Semurg Samarkand MChJ bo‘yicha tegishli ko‘rsatkichlari asosida ishlab chiqarish funksiyasining hisobi

	$y = \ln(Y)$	$k = \ln(K)$	$d = \ln(DI)$	$l = \ln(L)$	A	β	γ	a	A
2019	21,33	15,76	13,82	3,26	2,44	2,47	1,60	-46,073	9,79E-21
2020	21,96	15,79	13,82	3,26					
2021	22,41	15,79	13,82	3,18					
2022	22,55	15,81	13,82	3,14					
2023	22,85	15,81	14,51	2,89					

¹⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yakuniy natija yordamida Semurg Samarkand MChJda ishlab chiqarish funksiyasini shakllantirish imkoniga ega bo'ldik, ya'ni:

$$Y = (9,79E - 21) \times K^{2,44} \times L^{2,47} \times DI^{1,60} \quad (4)^{18}$$

Digital business management platformasi tomonidan xodimlar uchun ish haqi fondini kamayishi aniqlanib, ROI (kiritilgan xarajatlarning rentabelligi) yordamida boshqaruv samaradorligini aniqlash imkoniga ega bo'ldik, ya'ni:

$$ROI_{2024} = 207,02 \quad ROI_{2025} = 236,53 \quad ROI_{2026} = 267,63$$

Tahlil natijalaridan xulosa qilib, raqamli texnologiyalarning boshqaruv jarayoniga tatbiq etilishi natijasida investitsiyalar qaytimi ko'rsatkichi (ROI- return on investment) oshib borishi aniqlandi. Umuman olganda, ROI boshqaruvni baholashdagi asosiy ko'rsatkich hisoblanmasada, unda kiritilayotgan har bir investitsiya (xarajatni) qanchalik samarali ekanligini aniqlab berish xususiyatiga ega. Digital business management platformasini Semurg Samarkand MChJ faoliyatida joriy qilish natijasida boshqaruv samaradorligining 2024-2026 yillar davomida 1,5 barobar oshishi prognozlashtirildi.

Korxonada oldiga qo'yilgan strategik maqsadlarning to'g'ri qo'yilmasligi natijasida raqamli texnologiyalarni boshqaruv jarayoniga tatbiq qilish muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin. Bu o'z navbatida hozirgi zamonaviy biznes korxonada rahbarining boshqaruvda yangicha yondashuv soft va hard skills (yumshoq va qattiq ko'nikmalari)ni talab qiladi. Bizningcha, kichik biznes boshqaruv faoliyatida yetuk mutaxassis kadrlarning, investitsiyalarning yetishmasligi va innovatsiyalarning past darajasi avtomatlashtirishni sekinlashtiradi. Ayniqsa, bugungi kundagi ko'plab korxonalar o'z faoliyatida asosiy e'tiborni innovatsion texnologiyalarga emas, balki shunchaki qanday bo'lmasin tezroq foyda olishga qaratishadi.

Qattiq va yumshoq ko'nikmalarning o'rnini ayniqsa raqamli iqtisodiyotda korxonada boshqaruvini samarali olib borishda o'ta muhim. Ularning farqli jihatlari tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, qattiq va yumshoq ko'nikmalar o'zaro farq qiladi, lekin ikkalasi ham boshqaruvda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Garvard, Stenford universitetlari, Fond Karnegi ekspert tahlil markazi tadqiqotchi olimlari¹⁹ fikriga ko'ra, yumshoq ko'nikmalar shaxsning o'z kasbidagi muvaffaqiyatining 85%ni tashkil etishini asoslab, ularning tadqiqotlarida rahbarlarning 77% yumshoq ko'nikmalar qattiq ko'nikmalardan kam emas deb hisoblashadi. Boshqaruvchilar muvaffaqiyatining 75% yumshoq va 25% esa qattiq ko'nikmalarga bog'liqligi aniqlangan.

Bizningcha, yumshoq ko'nikmalar qattiq ko'nikmalar kabi muhimdir. Qattiq ko'nikmalar kasb bilan bevosita bog'liq bo'lsa, yumshoq ko'nikmalar ishning

¹⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁹ https://vk.com/wall-214774348_76?ysclid=m9shodvnl8450828606


muvaffaqiyatli olib borilishini ta'minlaydi deb hisoblaymiz. Shuningdek, hozirgi kunda yumshoq ko'nikmalarga ko'proq e'tibor qaratilayotganligiga qaramay, raqamli iqtisodiyot sharoitida professional malaka va qattiq kompetensiyalarsiz korxonalar boshqaruvi va raqobatini saqlab qolish mumkin emas deb hisoblaymiz. Ayniqsa, zamonaviy biznesda muayyan qattiq ko'nikmalarsiz, faqatgina yumshoq ko'nikmalar bilan raqobatni saqlab qolish juda qiyin.

Korxonalar boshqaruvchisi uchun ko'p hollarda yumshoq ko'nikmalar ularning qattiq ko'nikmalariga aylanadi deb o'ylaymiz. Negaki, boshqaruvchi boshqa mutaxassislik (buxgalter, marketolog, dasturchi va boshqa)lardan farqli tarzda, uning professional mahorati ya'ni boshqaruvni olib borish san'ati va salohiyati bilan o'lchansa, qolgan ko'plab kasblarda maxsus professional qattiq ko'nikmalarga asoslanadi. Bu borada rahbarlarning har bir boshqaruv vazifalari bo'yicha qaysi ko'nikmalardan ko'proq samara olinishi muhimligini aniqlash maqsadida raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesda yumshoq va qattiq ko'nikmalarining boshqaruv funksiyalarining alohida turlari bo'yicha tasnifi ishlab chiqildi (6-rasm).

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes korxonalari texnologik jihatdan yangilanishi bilan inson resurslarini boshqarishda ham yangi yondashuvlarga muhtoj. Ushbu tizimli tasniflash asosida raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlari faoliyatida boshqaruv funksiyalari — rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, motivatsiyalash va nazorat bo'yicha yumshoq va qattiq ko'nikmalarining ahamiyati va zarurligi aniqlandi.

Hozirgi kunda yumshoq va qattiq ko'nikmalarni boshqaruv funksiyalari bo'yicha tizimli tasniflash masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslanib, ushbu tasniflash biznes boshqaruvi faoliyatida kadrlar tayyorlash va baholash tizimini takomillashtirish uchun aniq mezon va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy boshqaruvda yumshoq va qattiq ko'nikmalarga asoslangan tizimli tasnif bo'yicha yondashish boshqaruv samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

Muallif fikriga ko'ra, qattiq va yumshoq ko'nikmalar boshqaruvchisi uchun ustuvor ahamiyatga ega. Boshqaruv faoliyatida faqat texnik bilim va malakalar (qattiq ko'nikmalar) yetarli bo'lmay, kommunikatsiya, liderlik, muammolarni hal qilish va jamoa bilan ishlash kabi yumshoq ko'nikmalar ham boshqaruvning barcha funksiyalarida samaradorlikni belgilovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, inson resurslarini boshqarishda yumshoq ko'nikmalar yetakchilik va tashkiliy qobiliyatlarni kuchaytirsa, strategik rejalashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarida qattiq ko'nikmalar asosiy nazariy-amaliy tayanch sifatida xizmat qiladi. Ularni birgalikda shakllantirish haqiqiy mutaxassis bo'lishga yordam beradi va biznesni rivojlantiradi. Kelajak esa ushbu ko'nikmalarining birgalikdagi uyg'unligi bilan ahamiyatli bo'lib, biznes faoliyatini zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash asosida olib borishlari muhim ahamiyat kasb etadi degan xulosalar qilindi.



6-rasm. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesda yumshoq va qattiq ko'nikmalarning boshqaruv funksiyalari bo'yicha tasnifi²⁰

²⁰ Muallif tomonidan tuzildi.

Tadqiqotimizda mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida va Samarqand viloyati yalpi hududiy mahsuloti tarkibida kichik biznes ulushining 2028 yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqildi (5-jadval).

5-jadval

YIM va YHM tarkibida kichik biznes subyektlari ulushining 2028 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari²¹

	Ko'rsatkich nomi	Prognoz uchun funksiya	Yillar			
			2025	2026	2027	2028
X1	O'zbekiston YIM tarkibida kichik biznes subyektlarining ulushi, %	$y = 66,044x^{-0,061}$	55,77	55,56	55,37	55,19
X2	Samarqand viloyati YHM tarkibida kichik biznes subyektlarining ulushi, %	$y = -0,688\ln(x) + 77,247$	75,06	75,09	75,12	75,15

Mazkur jadvaldagi prognoz natijalariga ko'ra, O'zbekiston YIM tarkibida kichik biznes subyektlarining ulushi 2025–2028 yillar oralig'ida pasayish dinamikasiga ega bo'lib, bu holat so'nggi yillarda kuzatilgan pasayish tendensiyasining davom etishi natijasida prognoz qilinayotgan davrlarda har yili o'rtacha 0.77% kamayishi kutilmoqda. YIM tarkibida soha ulushi tendensiyasidagi bunday holatning asosiy sababi sifatida, dissertatsiya tadqiqotimizning ikkinchi bobida amalga oshirilgan respublika miqyosidagi kichik biznes subyektlari demografiyasi bo'yicha tahlil natijalarini buning isboti sifatida ko'rsatish mumkin. Faoliyati tugatilgan korxonalar ulushidagi salbiy ko'rsatkichlar, hamda faoliyat ko'rsatmayotgan kichik biznes korxonalarining faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ulushining qariyb teng yarmini tashkil qilganligi, albatta uning YIMdagi ulushining pasayishiga sabab bo'lgan asosiy omillardan biri ekanligi aniqlandi. Istiqbolda kichik biznes sohasidagi bu kabi salbiy natijalarini bartaraf etish va sohani raqamli iqtisodiyot tendensiyasiga moslashtirish uchun davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni rehabilitatsiya qilish zaruratini ilgari surmoqda.

Prognozda tahlil natijalari Samarqand viloyati YHM tarkibida kichik biznes subyektlari ulushining siljish tendensiyasi 2010–2017 yillarda o'sishga ega bo'lib, 2018 yildan pasayish kuzatilgan. 2022–2024 yillarda ijobiy tendensiya mavjud bo'lib, 2025–2028 yillardagi o'sish sur'ati prognoz natijalariga ko'ra har yili 1–1,3% ga o'sishi kutilmoqda. Ushbu o'sishdagi ijobiy tendensiyadan ko'rinib turibdiki, kelajakda raqamli texnologiyalarni tatbiq etish asosida viloyatda kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatlari mavjudligi tadqiqot davomidagi tahlil natijalarida ham asoslab berilgan.

Tahlil natijalari kichik biznesning mamlakat miqyosidagi umumiy iqtisodiy holati sohani modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish zarurligini ilgari surmoqda. Hududiy darajada kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligidagi mavjud ijobiy dinamika ularni raqamli asosda rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligini ko'rsatdi. Demak, prognozlangan tendensiyalar kichik biznes boshqaruvida diversifikatsiyalashgan yondashuvlarni shakllantirish zarurligini ko'rsatdi.

²¹ Muallif tomonidan hisoblandi.

XULOSA

Dissertatsiya ishini bajarish jarayonida amalga oshirilgan tadqiqot quyidagi asosiy xulosa va takliflarni ishlab chiqish imkonini berdi.

1. Yangi O‘zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish, uning ulkan salohiyatini taraqqiyotning yetakchi omillaridan biriga aylantirish strategiyasi amalga oshirilmoqda. Shu sababli, dissertatsiya tadqiqotida kichik biznes boshqaruv tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga, uning nazariy-metodologik muammolarini tahlil qilishga, sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga jiddiy e’tibor qaratildi. Ilmiy adabiyotlarda mavjud ilmiy qarashlarni o‘rganish va umumlashtirish asosida “boshqaruv” va “menejment” tushunchalariga muallif talqinidagi quyidagi talqindagi ta’riflar ishlab chiqildi: “Boshqaruv – bu kishining ongli ravishda muayyan obyektga qaratilgan va muayyan natijaga yo‘naltirilgan, uning holatini o‘zgartirish yoki barqarorlashtirishga erishilishi ko‘zlangan harakat (ongli, maqsadli ta’sir ko‘rsatish)”. “Menejment – bu aniq strategiya, prinsip, taktika, metodika asosida boshqaruv funksiyalari va taym menejmentini to‘g‘ri taqsimlash orqali ko‘zlangan maqsadning samaradorligiga erishish jarayoni”.

2. Kichik biznes boshqaruvining samaradorligi ko‘p jihatdan davlatning sohani tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash siyosatining mukammalligiga bog‘liq. Davlat tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va tartibga solish siyosatining zarur yo‘nalishi sifatida “Kichik biznes reabilitatsiyasi” degan yangi ilmiy tushunchani kiritish taklifi ishlab chiqildi. Uning mohiyati ochib berildi, kichik biznes subyekting yashovchanlik davrini uzaytirish nuqtayi nazaridan ahamiyati ilmiy asoslandi. Reabilitatsiyaga muhtoj kichik biznes subyektlarini aniqlash asosida faoliyati tiklanishga muhtoj bo‘lgan kichik biznes subyektlarini reabilitatsiya qilish chora-tadbirlarining yo‘l xaritasi ishlab chiqildi.

3. Tadqiqot jarayonida kichik biznes subyektlari o‘rtasida ikki bosqichli so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomaning dastlabki bosqichida kichik biznes korxonalarining umumiy holatini o‘rganishga qaratilib, boshqaruv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etishni xohlagan respondentlarning munosabati o‘rganildi. Ikkinchi bosqichda kichik biznes subyektlarining raqamlashtirishni joriy qilishga tayyor bo‘lganlari o‘rtasida o‘tkazilib, raqamlashtirish texnologiyalariga oid respondentlarning taklif va tavsiyalari olindi va tahlil qilindi. Ushbu 2 bosqichdagi o‘tkazilgan so‘rovnoma tahlili natijasida kichik biznes boshqaruvida raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy qilish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida, ularning salohiyati bo‘yicha baholash muhim ekanligi ilmiy asoslandi.

4. Kichik biznes subyektlari ko‘lami bo‘yicha boshqaruvda raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari asosida ularning salohiyatini baholash modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelda kichik biznesning tashkiliy-huquqiy shakllari bo‘yicha 5 toifasi tanlab olindi va ularning boshqaruv faoliyatini raqamlashtirish salohiyati (raqamlashtirishni joriy etish, raqamli ko‘nikmalar, innovatsion yondashuvlar va innovatsion menejment)ni 4 ta darajalar (ehtimoliy, past, o‘rta, yuqori) bo‘yicha aniqlash orqali baholashga erishildi. Ushbu baholash modelida kichik biznes subyektlari faoliyatining boshqaruvidagi xususiyatlaridan kelib chiqib, qaysi bosqichlariga raqamlashtirishni joriy qilish samaraliroq ekanligini aniqlash imkonini berdi.

5. Sotsiologik so'rov natijasida raqamlashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi va turtki berishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlashga erishildi. Ushbu o'tkazilgan so'rovnoma natijalarini umumlashtirish asosida boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish o'ta dolzarb va ahamiyatli ekanligi asoslanib, bu borada barcha toifadagi boshqaruvchilar yetarli darajada salohiyat, tashabbus, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur degan xulosaga kelindi. Xususan, korxonalar rahbarlarining boshqaruvda yangicha yondashuv asosida o'z faoliyatini tashkil qilishga bo'lgan munosabatlari o'rganildi va bu tahlil natijalari asosida ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

6. Kichik biznes boshqaruvida raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali takomillashtirish vazifasini yechish maqsadida "Digital business management" platformasining modeli ishlab chiqildi. Digital business management platformasi kichik biznes subyektlarining bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilgan holda, uning amaliyotga joriy etilishi boshqaruv qarorlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkinligi va bu quyidagi beshta mezonlarda: bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarning to'g'ri taqsimlanishi; masofadan turib raqamli texnologiyalar yordamida boshqarish imkoniyatining vujudga kelishi; yetkazib beruvchilar va xaridorlar o'rtasidagi munosabatlarning takomillashuvi; resurslar taqsimotini raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish va faoliyat sifatini baholash imkoniyatlarining kengayishida namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

7. Tadqiqotda kichik biznes subyekti ishlab chiqarish hajmining o'sishini modellashtirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir necha ishlab chiqarish funksiyalari orasidan aynan Kobb-Duglas funksiyasini tanlanishining asosiy sababi undagi ilmiy-texnik progressni e'tiborga olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bizning tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan ustunlikka ega ekanligi asoslab berildi. Tahlil natijalari Kobb-Duglas funksiyasi modelidan foydalanish mumkinligini tasdiqlab, uning yordamida kichik biznes subyektlari tomonidan raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi faoliyat natijasiga ta'sir etishidagi bog'liqligini hisoblab berishdagi salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatdi.

8. Boshqaruvda raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy etish asosida samaradorlikka erishish prognozlarini amalga oshirildi, unga ko'ra, raqamli texnologiyalarining boshqaruv jarayoniga tatbiq etilishi natijasida investitsiyalar qaytimi ko'rsatkichi (ROI- return on investment) oshib borishi aniqlandi. ROI boshqaruvni baholashdagi asosiy ko'rsatkich hisoblanmasada, unda kiritilayotgan har bir investitsiya (xarajat) qanchalik samarali ekanligini aniqlab berish xususiyatiga ega ekanligi "Semurg Samarqand" MChJ korxonasi misolida ko'rib chiqildi va unda "Digital business management" platformasini joriy etish natijasida boshqaruv samaradorligining 2024-2026 yillar davomida 1,5 barobar oshishi prognozlashtirildi.

9. Kichik biznes boshqaruvida raqamli transformatsiyaga erishishda aniq strategiya, xarajatlarni optimallashtirish, biznes modellarini to'g'ri yo'lga qo'yish, raqamli immunitetni shakllashtirish asosida ularni raqamlashtirish bosqichiga tayyorlash zarurligi asoslab berilgan holda, uch bosqichli "Raqamli transformatsiya o'rgimchak to'ri" modeli taklif etildi, uning ahamiyati va asosiy xususiyatlari belgilab berildi. Sohaga raqamli texnologiyalarni joriy qilish maqsadida "Raqamli

iqtisodiyotda kichik biznes boshqaruvini rivojlantirish modeli” asosida yondashish taklifi ishlab chiqildi.

10. Tadqiqotning so‘nggi bosqichida kichik biznes subyektlarining YIM tarkibidagi ulushini prognozlashning analitik tenglamalari ishlab chiqildi. 2028-yilda respublika miqyosida kichik biznes subyektlarining YIM tarkibidagi ulushi 55,19%ni va Samarqand viloyatida kichik biznes subyektlarining YIM tarkibidagi ulushi 75,15%ni tashkil qilishi prognozashtirildi. Shuningdek tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarining ko‘p qirrali faoliyati boshqaruvida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish asosida takomillashtirish, ularning boshqaruv jarayonlariga ta’sirini kuchaytirish, milliy iqtisodiyotning ushbu muhim sektorida YIM hajmining o‘shish sur’atlarini jadallashtirish, asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalar samaradorligini oshirish, band bo‘lgan xodimlar mehnat unumdorligining o‘shishiga erishish imkoniyatlari katta ekanligini ko‘rsatdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2020.I.16.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

МАХМУДОВА ДИЛБАР РАХМОНОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА В
УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ**

08.00.13 – Менеджмент

08.00.15 – Экономика предпринимательства и малого бизнеса

АВТОРЕФЕРАТ

Диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за № B2024.4.PhD/Iqt1627

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Мухаммедов Мурод Мухаммедович**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Гуломов Саидахрор Саидахмедович**
доктор экономических наук, академик
Турсунов Бобир Ортикмирзаевич
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: **Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2025 года в ____ на заседании научного совета DSc.03/30.12.2020.I.16.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, г.Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-01-49; факс: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрировано № _____). 100066, г.Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-75; факс: (99871) 239-28-75; e-mail: tdiu@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года.

(протокол реестра № ____ от «__» _____ 2025 года).

Г.К.Абдурахманова
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней,
д.э.н., профессор

О.Дж.Джурабаев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Ш.А.Аллаёров
Председатель Научного семинара по присуждению ученых степеней,
д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации (PhD) доктора философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой экономике в условиях формирования цифровой экономики совершенствование управления малым бизнесом позволяет повысить эффективность и результативность управленческих решений за счет внедрения новых цифровых инструментов, технологических решений и инновационных методов управления. Этот процесс, в свою очередь, вносит существенный вклад в экономическую стабильность посредством обеспечения рыночной адаптивности и конкурентоспособности малых предприятий, повышения эффективности использования ресурсов и прозрачности бизнес-операций. «В настоящее время доля малого бизнеса в ВВП развитых стран составляет в Китае 60%, в Японии — 56%, в США — 55%, в Узбекистане — 54%, в России — 21%»¹. На сектор малого бизнеса приходится более половины экономики и большая доля общей численности занятого в экономике населения, играя важную роль в развитии инновационной экономики в стране. К тому же посредством широкого использования цифровых технологий ускоряется интеграция малого бизнеса в мировой рынок, усиливается его участие в международных экономических отношениях, что имеет большое значение в повышении общих темпов и качества экономического роста.

В мире приоритетными направлениями научных исследований по совершенствованию управления малым бизнесом в условиях формирования цифровой экономики являются методы управления процессами цифровой трансформации малого бизнеса, механизмы применения технологий искусственного интеллекта и машинного обучения в системе принятия управленческих решений, интеграция технологии блокчейн для повышения прозрачности финансовых операций и бизнес-процессов, а также совершенствование стратегий интеграции малого бизнеса в глобальные рынки на базе цифровых платформ, разработка методологий формирования и развития цифровых управленческих компетенций.

В созидании Нового Узбекистана большое внимание уделяется вопросам ускоренного развития малого бизнеса и эффективного использования его управленческих возможностей. На сегодняшний день для достижения эффективности деятельности субъектов малого предпринимательства большое значение имеет расширение сферы применения цифровых технологий в управлении, совершенствование всех компонентов управленческого механизма, внедрение инновационных подходов в политику государства в области нормативного регулирования и поддержки малого бизнеса. Совершенствование системы управления в малом бизнесе имеет ряд трудностей, связанных, прежде всего, с внедрением в управленческую деятельность стремительно развивающихся цифровых

¹ Источник: Официальные данные Национального комитета статистики Республики Узбекистан; Отчеты Центр развития предпринимательство Московской области. - <https://mcpmo.py/> .
<https://expert.ru/ekonomika/kak-v-rossii-rastet-maloe-i-srednee-predprinimatelstvo/>

технологий. Внедрение цифровых технологий в управление является важным фактором создания современных механизмов управления, направленных на рациональное использование ресурсов, принятие быстрых и обоснованных решений, обеспечение конкурентоспособности на рынке. При этом для эффективной реализации поставленных в этой связи задач важное значение имеют научные исследования, направленные на раскрытие сущности научного понятия «реабилитация малого бизнеса» и обоснование его практической значимости, разработка модели оценки потенциала субъектов малого предпринимательства на основе внедрения цифровых технологий в управление, методического подхода к расчету объема производства субъектов малого предпринимательства на основе функции Кобба-Дугласа, прогнозных параметров доли субъектов малого предпринимательства в долгосрочной перспективе.

